

Strengthening internal audit and corporate governance systems, along with increasing staff expertise in risk management by 15–20%, enables banks to respond quickly to global shocks. These measures ensure long-term financial stability.

### *References:*

1. “Uzbekistan–2030 Strategy” — Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, No. PF-158, September 11, 2023.
2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan — <https://cbu.uz>
3. National Bank of Uzbekistan — <https://nbu.uz>

## **MUAMMOLI KREDITLARNING BANK LIKVIDLILIGI VA RENTABELLIGIGA TA’SIRI**

***Nomozov Umid Iskandarovich***

*O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda bank-moliya tizimi, ayniqsa, tijorat banklarining tutgan o‘rni beqiyosdir. Chunki tijorat banklari jamiyatdagi ortiqcha pul mablag‘larini yig‘ish, ularni samarali yo‘naltirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, turli xil kredit va hisob-kitob xizmatlarini ko‘rsatish orqali iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Mazkur tizim orqali ishlab chiqarish korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari, shuningdek, aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi loyihalarning moliyalashtirilishi amalga oshiriladi. Lekin ushbu jarayonda kreditlar bilan bog‘liq risklar, ayniqsa, ularning qaytarilmasligi yoki kechiktirilgan holatlari banklar faoliyatida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar ko‘pincha real sektor uchun asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Ammo kredit oluvchilarning moliyaviy intizomi, biznes yuritishdagi sustkashliklar, bozor sharoitlarining tez-tez o‘zgarishi, garov qiymatining real bahodan farq qilishi, shuningdek, banklar tomonidan qarzdorlarning kreditga layoqatliligini baholashdagi xatoliklar muammoli kreditlar ulushining ortishiga olib kelmoqda. Bu kabi qarzlar bank balansida sifatli aktivlar sifatida hisoblanmasdan, aksincha, zarar keltiruvchi aktivlar sifatida baholanadi. Muammoli kreditlar sonining ko‘payishi natijasida banklarning moliyaviy holati izdan chiqishi, kreditlash hajmining qisqarishi, daromadlarning kamayishi va hatto bank muassasasining to‘lovga qodir emas holatga tushib qolish xavfi yuzaga keladi.

Muammoli kreditlar nafaqat bankning o'ziga, balki butun moliyaviy tizimga, iqtisodiyotga va aholi ishonchiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu muammoning ildiziga chuqur kirib borish, uni yuzaga keltirayotgan ichki va tashqi omillarni aniqlash, shuningdek, muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, raqamli texnologiyalarni bank amaliyotiga joriy etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, kredit portfelining sifatini doimiy monitoring qilish hamda kredit oluvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish kabi omillar muhim o'rin tutadi. Shu munosabat bilan, ushbu mavzuning tanlanishi bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda bank-moliya sohasini isloh qilishga qaratilgan farmon va qarorlari, Markaziy bank tomonidan joriy etilayotgan yangi reglament va ko'rsatmalar, shuningdek, banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi ushbu yo'nalishda tizimli yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Tadqiqot davomida muammoli kreditlarning vujudga kelish sabablarini batafsil tahlil qilish, mavjud muammolarni chuqur o'rganish, xalqaro moliyaviy institutlar tajribasini solishtirish va mahalliy sharoitga mos keluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali bank sektorida barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shish maqsad qilinadi.

### 1-jadval

#### Tijorat banklarning muammoli kreditlari dinamikasi (2022–2024-yillar)<sup>118</sup>

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Jami kreditlar (mlrd so'm)	382 078	465 493	525 887
Muammoli kreditlar (NPL, mlrd so'm)	15 344	17 631	22 447
Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi (%)	4,0%	3,8%	4,3%
Davlat ulushi mavjud banklar – jami kreditlar (mlrd so'm)	318 788	331 070	363 939
Davlat ulushi mavjud banklar – muammoli kreditlar (NPL, mlrd so'm)	13 828	13 750	14 982
Davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar ulushi (%)	4,3%	4,2%	4,1%

2022–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston tijorat banklarining muammoli kreditlari dinamikasini tahlil qilish mamlakat bank tizimi faoliyatidagi muhim tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. So'nggi yillarda iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar, moliya bozorini liberallashtirish, kreditlash hajmini kengaytirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash natijasida tijorat banklarining kredit portfeli sezilarli darajada oshdi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda tijorat banklarining jami kreditlari 382 078 mlrd so'mni tashkil etgan

<sup>118</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning byulleten ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 465 493 mlrd so'mga, 2024-yilda esa 525 887 mlrd so'mga yetgan. Ushbu o'sish iqtisodiyotda kredit resurslariga bo'lgan talab ortayotganini, banklar tomonidan real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash faoliyatining kengayganini anglatadi. Lekin kredit hajmlarining bunday tez o'sishi bilan bir qatorda ularning sifati, ya'ni muammoli kreditlar ulushi ham alohida e'tibor talab etmoqda.

Xususiij tijorat banklarida esa muammoli kreditlar ulushi nisbatan past bo'lishiga qaramay, ularning hajmi tez sur'atlarda ortib bormoqda. Bunga kichik va o'rta biznes subektlariga berilayotgan kreditlar hajmining sezilarli kengayishi, shuningdek, ayrim mijozlarning moliyaviy intizomining sustligi sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi, tashqi bozorlarda talabning kamayishi va ayrim tarmoqlarda aylanma mablag'larning yetishmasligi muammoli kreditlarning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, muammoli kreditlar (NPL – non-performing loans) masalasida har bir mamlakat o'zining moliyaviy tizimi, huquqiy-institutsional muhiti va iqtisodiy sharoitlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqqan. Masalan, AQShda 2008-yilgi moliyaviy inqiroz davrida TARP (Troubled Asset Relief Program) dasturi orqali davlat banklardagi toksik, ya'ni yuqori xavfga ega aktivlarni to'g'ridan-to'g'ri sotib olib, ularni balansdan chiqarib tashladi va o'rniga banklarni kapitallashdi. Bu yondashuv qisqa vaqt ichida bank sektorida ishonchni tiklash, kreditlash hajmini tiklash va banklararo likvidlikni oshirishga xizmat qildi. Model katta miqdorda davlat moliyasi mavjud bo'lgan iqtisodlar uchun samarali, biroq kichikroq yoki rivojlanayotgan davlatlarda to'liq tatbiq etilishi qiyin bo'lishi mumkin.

Banklar kredit portfelini segmentlash va diversifikatsiya qilish orqali muammoli kreditlar riskini kamaytirishi mumkin. Xususan, korporativ va chakana kreditlash yo'nalishlarida xavf darajasi yuqori segmentlarda qo'shimcha monitoring, tahlil va erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish lozim. Shu bilan birga, raqamli kreditlash yo'nalishlarida sun'iy intellekt va big data texnologiyalari yordamida qarz oluvchilarni avtomatik tahlil qilish, to'lov qobiliyatini baholash va muammoli kreditlar yuzaga kelishidan oldin ularni aniqlash imkoniyatini oshirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv nafaqat kredit portfelini optimal boshqarish, balki bank kapitaliga tushadigan bosimni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va raqamli xizmatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.